




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOTATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022- YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)







Tel.: 65-223-80-42

www.buxstat.uz

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 27 245,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,2 % ni tashkil etdi.






mlrd. so'm FHI, % da

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (684 137,1 ming so'm), Kogon tumani (18 727,9 ming so'm) hamda Kogon shahrida (15 133,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (13 668,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



ming. so'm

o'sish sur'ati

(2022- yil yanvar- dekabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 25 191,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,5 % ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd.so'm




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Qorovulbozor tumani (48,4 %), Buxoro shahri (10,9 %), G'ijduvon tumani (6,5 %), Kogon tumani (5,6 %) hamda Romitan (5,2 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buxoro (115,7 %), Vobkent (110,5 %), hamda Peshku (107,8 %) tumanlarida kuzatildi.

FHI, % da






Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash shahar va tumanlar kesimida


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 868,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ini tashkil etdi.



mlrd. soʻm

FHI, % da

2022- yil yanvar-dekabr oylarida
O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari




Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	1 817,0	1 552,0	- 265,0
Shag'al, t.	32 791,0	55 400,0	22 609,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	191 509,8	181 225,6	-10 284,2


Ishlab chiqaradigan sanoat shahar va tumanlar kesimida (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25 191,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,0 % (2,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 57,2 % (51,9 %) va quyi texnologiyali – 40,7 % (45,9 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,1 % (2021- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 111,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,9 % (2021- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 98,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,7 % (2021- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 100,6 %) ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,4 %) ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 993,4 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 13,6 % ga ko'paygan), 317,9 ming litr uzum vinosi (8,1 % ga kamaygan), 6 807,8 ming litr aroq mahsulotlari (92,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	82,7	78,1	-4,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t	7 191,6	3 617,5	-3 574,1
Paxta tolasi, t	99 801,0	89 462,0	-10 339,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	85 442,0	66 815,9	- 18 626,1
Paxta chigiti, t.	151 824,0	131 734,0	- 20 090,0




Metallurgiya sanoati



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,6 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 93,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 84,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1 282,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa, 100,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 011,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 179,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 47,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 121,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,7 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi 5 963,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallar, qoq'oz va qoq'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 122,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajm indeksi 90,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 253,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 87,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 539,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 72,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 46,1 % ni, fizik hajm indeksi 111,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 12 554,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,7 % .

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 110,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 993,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 % ini) tashkil etdi.




mlrd. so'm

FHI, % da



yanvar-dekabr
FHI, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sur'ati 74,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha esa 96,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7,4	5,5	- 1,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	780,4	750,4	- 30,0


*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**



Elektroenergiya




Issiqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 190,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.




mlrd. so'm

FHI, % da

yanvar-dekabr
mlrd.so'm



yanvar-dekabr
FHI, % da



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 13,3 % ga hamda axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	17 332,5	19 632,0	2 299,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	490,1	517,0	26,9


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar







Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida


Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (23,5 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (19,7 %) ni, G'ijduvon tumani (10,6 %) ni, Kogon tumani (8,6 %) ni tashkil etdi.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4 833,8 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 117 481,3 ming so'mni, Kogon tumanida – 10 154,7 ming so'mni, Buxoro shahrida – 5 592,1 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
ming. so'm



yanvar-dekabr
o'sish sur'ati




ming. so'm

o'sish sur'ati

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 635,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylari mos davriga nisbatan 105,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatida 3 468,8 mlrd so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,1 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Kogon tumani (115,6 %), Qorovulbozor tumani (113,1 %), Qorako'l tumani (110,6 %) va Olot tumani (110,3 %) korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 36,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 64,0 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 35,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 64,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 104,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (35,8 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (17,6 %) ni, G'ijduvon tumani (11,4 %) ni, Kogon tumani (7,3 %) ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





mlrd. so'm o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, (23,6 %) ni, Jondor tumani (13,0 %) ni, Kogon tumaniga esa (11,0 %) ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd.so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-dekabr
o'sish sur'ati




mlrd. so'm

o'sish sur'ati



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 089 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 271 tasi faoliyat (ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,0 % i) Buxoro shahriga, 629 tasi (12,4 % i) G'ijduvon tumaniga, 414 tasi (8,1 % i) Kogon tumaniga, 374 tasi (7,3 % i) Jondor tumaniga, 374 tasi (7,3 % i) Buxoro tumaniga, 363 tasi (7,1 % i) Romitan tumaniga to'g'ri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan




faoliyat yuritayotgan ●●●●●●●●●● yangi tashkil etilgan ●●●●●●●●●●

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



2022-yil yanvar- dekabr oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 237,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd.soʻm



yanvar-noyabr
ulushi % da



mlrd. soʻm

ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 141 ta loyiha bo'yicha 3 366,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 32,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar - dekabr oylarida 1 518 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 160,5 % ni tashkil etdi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2021-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	148	141
Korxonalar soni, birlik	136	130
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	2 106,2	3 366,3
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	32,1	32,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	946	1 518

